ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

## *Илимий-методикалық журнал*

## *2024*

## 3/1-сан

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.*

Нөкис

**Орлова Т.А.** Иммерсивные технологии - как средство развивающего аспекта в обучении астрономии студентов педагогических вузов ........ 329
**Mamatoxunov Yo.A.** Integration of modern technologies into the educational process: analysing the impact on learning outcomes in physics ........ 336

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Ixlasov I.** Baslawısh klasslarda lingvistikalıq kompetensiyaǵa tiykarlanǵan qatnaslardı qáliplestiriwde kompetensiyanıń mazmun hám mánisi ........ 342
**Xurvalieva T.L.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishning kelib chiqish sabablari va uning yechimlari ........ 346
**Narimbayeva L.K.** Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotinii boshqarish ........ 350
**Shanasirova Z.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahorat ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 355
**Nosirova R. X.** Steam ta`lim texnologiyalari, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida ........ 359
**Abdullayev A.A.** Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash xususiyatlari ........ 363
**O'razaliyeva S. T.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va kasbiy talablar ........ 366
**Davletmuratova E., Orazbaeva G.** O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tuygusini tarbiyalashda xalq pedagogikasining ahamiyati ........ 370
**Azamatova D. Sh.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining turlari ........ 374
**Maripova N.X.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o'yinlarning ta'siri ........ 378
**Xidoyatova N.A.** Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirish ........ 381
**Achilova M. S.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslari ........ 386
**Mutalova D. A.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish ........ 391
**Kasimova N. D., Tojiddinova Z.** O'smir - o'quvchilarni kompyuter o'yinlari vositasi yordamida ta'lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ........ 395
**Tursunboyeva M. D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida ma'naviy sifatlarni tarbiyalash ........ 402
**Abduraximov D.D.** Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash ........ 406
**G'anixo'jayev A.Sh.** Aqliy va jismoniy salomatlikning bog'liqligi ........ 410
**Muratova M.O'.** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakillantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati ........ 413
**Babyeva D.R.,Ochilova X.Sh.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvning zaruriyati ........ 418
**Ergasheva B.Z.** Modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolari ........ 423
**Eshmamatova S.T.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 426
**Buriyeva A.N.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'limiy o'yinlarning didaktik ta'minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar ........ 429
**Ilyosboyev S.B.** Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo`llari ........ 434
**Aybotayeva M.X.** Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlarni tashkil etish yo`llari ........ 438
**Eshboyeva D.D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish ........ 442
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya ........ 446
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllari ........ 452

# MILLIY HARAKATLI O‘YNLAR VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AHLOQIY TARBIYALASH

***Abduraximov D.D.***
*CHDPU Bolalar sporti kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** jismoniy tarbiya, barkamol avlod, axloqiy tarbiya, milliy, harakatli o‘yinlar, ta’lim, o‘quvchi, imkoniyat, o‘qituvchi.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, подростковое поколение, нравственное воспитание, натсиональное, игры, воспитание, ученик, возможность, учитель.

**Key words:** physical education, adolescent generation, moral education, national, action games, education, student, opportunity, teacher.

Mamlakatimizda ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirishga, bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, hayotning o‘zi oldimizga sog‘lom avlodni tarbiyalashdek muhim va yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash jarayoni ta’lim bosqichlari hamda ta’lim sohalari o‘rtasida uzviylik pritsipiga amal qilgan sharoitda samarali kechadi[3]. Qolaversa, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi ham barkamol avlod tarbiyasining muhim shartlaridan biridir. Shu ma’noda jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlari milliy harakatli o‘yinlarning turlari yordamida o‘quvchilarni estetik anglash vazifalarini amalga oshirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda hech qanday tasodifiy va shoshilinch narsalar bo‘lishi mumkin emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy harakatli o‘yinlarning ahloqiy sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, buning uchun o‘quvchilarni milliy harakatli o‘yinlar bilan doimo tizimli ravishda shug‘ullanishiga zarur sharoit yaratish va yoshiga hamda fiziologik imkoniyatlariga mos tushadigan milliy harakatli o‘yinlarni tanlab olinishi kerak. Bu esa o‘z navbatida o‘quv dasturda berilgan o‘yinlar jumlasiga kiradi. O‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlarni o‘ynashi

va bajarishida o‘yinni ahloqiy jihatlari ko‘p jihatdan o‘yinni to‘g‘ri tanlab olinishiga bog‘liq.

Milliy harakatli o‘yinlar insonni har tomonlama tetik, hushyor qobilyatli bo‘lib kamolga etkazadiki, bunda “ahloq va go‘zallikni anglash tarbiyasi” asosiy o‘rinlardan biriga aylanadi. Tabiat qo‘ynida yoki ozoda-shinam sport zalida o‘quvchilarning milliy harakatli o‘yinlar bilan shug‘ullanishi, bularning hammasi ularda ahloqiy, his-tuyg‘usini, aqliy tushunchasini va didini tarbiyalaydi. Shubha yo‘qki, xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan harakatli o‘yinlar ahloqiy hislarini yuzaga keltiradi. Milliy harakatli o‘yinlarni o‘ynash jarayonida, harkatlar va maqsadning mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi uning ahloqiy va go‘zalligini ta’minlaydi. Ahloq bu avvalo, ijobiy xislatlar, harakatlarning sodda, engil, izchil va tugal bo‘lishidirki, o‘qituvchi ham o‘quvchi ham bunga intilsalar, ahloq va nafosatga erishadilar.

Pedagog o‘quvchilarga o‘rgatayotgan dasturdagi milliy harakatli o‘yinlarni o‘zi hoxlaganicha o‘zgartiraverishi mumkin emas, shuning uchun dasturda belgilangan o‘yinlardan foydalanish tanlangan o‘yinni o‘quvchilar ongida shakllantirish hamda uni ahloqiy sifatlarni xis qilidirish orqali o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish qat’iy tizimi bo‘lishi shart[1]. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlaridagi ahloqiy jihatlarni anglashi bu ularning bir qator sifatlarini shakllantiradi.

Jumladan, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning faolligi, atrofdagi narsalarga juda qiziquvchanligi, sinchkovligi, har bir narsaga ishonishi va taqlid qiluvchanligidan o‘qituvchi mohirona foydalansa, yo‘naltira bilsa, ahloqiy odatlari tez mustahkamlanib borishiga yordam beradi. O‘qituvchining shaxsiy o‘rnagi madaniy xulq atvori o‘quvchilarda ko‘nikmalarni to‘g‘ri shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki o‘quvchilar unga astoydil taqlid qiladilar.

O‘quvchilar milliy harakatli o‘yinlardan turli ko‘nikmalarni, shu bilan birga chiroyli harakatlarni egallab olishlari uchun to‘g‘ri xarakat qilish usullarini bilishi, harakatlarni ahamiyatini, uni ahloqiy sifatlarni shakllanishi zarurligini tushunishi, keyinchalik esa, bu o‘yinlar mobaynida uni o‘ziga singdira bilishi kerak. Buning uchun pedagog u yoki bu milliy harkatli o‘yinlarning ahloqiy jihatlarini amalda ko‘rsatishi, uni o‘quvchilarga aniq tushuntirishi, o‘yinlardagi bir-biriga bo‘ladigavn munosabatlar qanday bo‘lishini ko‘rsata bilish, to‘g‘ri bajarilishini kuzatib borish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk maktab ostonasiga qadam qo‘yishar ekan umumta’lim fanlari sifatida jismoniy tarbiya darslari o‘tiladi. Jismoniy tarbiya darslarining asosini esa milliy harakatli o‘yinlar tashkil etadi[2]. Darsni boshlanishidan oldin salomlashish va xayrlashishga va so‘ngra o‘quvchilar

buni o‘zlashtirganlaridan keyingina ularni rahmat aytishga o‘rgatish to‘g‘ri kelmaganidek, ba’zan zarur bo‘lgan taqdirda bir necha qoidalarni bir vaqtni o‘zida qo‘llanilishiga to‘g‘ri keladi. Agar ko‘p o‘quvchilar bu qoidalarni buza boshlasalar, hamma o‘quvchilarni e’tiborini uni qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish va jalb etish lozim. Tushuntirish va topshiriq berishdan tashqari ba’zi o‘quvchilar oldiga qat’iy talablar ham qo‘yish kerak bo‘ladi. Qoida bir necha bor takrorlansa ham, o‘quvchi o‘z joyidan ajrab qolishni istamaydi yoki qiziq o‘yindan ketgisi kelmaydi. Ana shunday paytlarda pedagogik mahoratdan foydalanish talab etiladi. O‘yin jarayonida esa o‘quvchilarni o‘yin qoidalariga, undagi ahloqiy talablarga rioya qilishga odatlantirish uchun o‘qituvchidan chidam, sabot va qat’iyat, elementli harakatlarga ham e’tibor berish, o‘z harakatlarini doimo kuzatib borish ham zarurdir.

Harakatli o‘yinlar o‘quvchilarning ma’naviyati va madaniyati darajasining o‘sishiga zamin yaratib, xulq, odob qonun-qoidalarini, axloq kategoriyalarini ularning ongi, hayoti, turmush tarziga singdirishi uchun muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatli milliy o‘yinlar orqali axloqiy tarbiya berish mazmuni asosan quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. Ona zaminga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan sarhadlarini himoya qilish, sabot va matonat bilan mamlakat ravnaqini o‘stirish, mustaqillikni mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.

2. Jismoniy fazilatlarni tarbiyalash. Bu fazilatlar insonni etuklikka, kamolotga ergashtirish uchun xizmat qiladi.

3. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalanadi.

4. Jamiyat a’zolariga, atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. Shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yishidir.

5. Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi- bu o‘quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Demak, bolalar o‘yindagi axloqiy sifatlarga ijodiy faollik ko‘rsatib o‘ynasalar, o‘yinlar ularda tashkilotchilik malakasini o‘stiradi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘rtog‘iga yordam berish, o‘z holicha yoki o‘rtoqlari bilan darhol bir qarorga kelishi axloqiy tashabbuskorlik hisoblanadi. Agar bolalar o‘yinni ilgari o‘zlashtirgan bo‘lsalar, o‘yin paytida ularning faolligi yanada ortishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Асланова М.А. Таълим жараёнида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш (бошланғич синфларнинг жисмоний тарбия дарслари мисолида). 13.00.01-п.ф.н., дисс. Навоий – 2009 й. 29 б.

2. Махмудов Б.А. Милий ҳаракатли ўйинлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларинини эстетик тарбиялашнинг дидактик имкониятлари. 13.00.01. – п.ф.ф.д., дисс. Нукус – 2018 й. 36 б.

3. Хожимирзаев А.Д. Жисмоний тарбия дарсларида ва синфдан ташқари машғулотларида ўсмирларни эстетик тарбиялаш: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Т., Қори Ниёзий номли ЎзПФИТИ, 2002.- 169 б.

**РЕЗЮМЕ**

Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimida barkamol avlodni ahloqiy tarbiyalashda milliy harakatli o‘ynlarning o‘rni hamda unga qo‘yiladigan vazifalar to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье дается обзор роли и задач натсиональных мобильных игр в воспитании молодежи в системе непрерывного образования.

**SUMMARY**

This article provides an overview of the role and tasks of national mobile games in the education of youth in the continuing education system.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

# «МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

**№** 3/1

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

*А. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:

*А. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54***
***Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***
***www.KRTEACH.UZ***

***Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 05.03.2024. Форматы 70x100 $^1/_8$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №